



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, IV-QISM

OPEN  ACCESS

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

Google
Scholar

Academic
Resource
Index
ResearchBib



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
IV-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL ENERGIYA SEKTORIDA VENCHUR INVESTITSIYALARINING RIVOJLANISHI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON IMKONIYATLARI	12
Qarajanova Gulnoza Tolliyevna MILLIY KOMPANIYALARNI BAYNALMILALLASHUV BOSQICHLARI VA XALQARO KORPORATIV BIRLASHUVLAR (M&A) STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	19
Shokirov Shoxruxmirzo Baxtiyorjon o'g'li QISHLOQ XO'JALIGINI IQLIM VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARGA MOSLASHTIRISHDA SMART TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH	23
Mirzataev Salamat Muratbaevich QISHLOQ XO'JALIGIDA MEVACHILIK KLASSTERLARINI TASHKIL ETISHNING ISHLAB CHIQUV VA RENTABELLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	28
Tureev Azizbek Abatovich QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH XIZMATLARINI SUN'YI INTELLEKT ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK MODELII	32
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	37
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna Sharipov Kongratbay Avezimbetovich THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL INSURANCE MARKET AND THE LEVEL OF INCLUSIVENESS	43
Ravshanova Mohinur O'rolovna O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	51
Kurbonova Ma'mura Abdulkarim qizi TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MEKANIZMLARI	55
Qaraev Anvar Botirovich THE IMPACT OF LOYALTY PROGRAMS ON CUSTOMER RETENTION IN ONLINE COSMETICS: A MIXED-METHODS STUDY	61
Toirova Mubina IQLIM O'ZGARISHI VA "YASHIL" TRANSFORMATSIYANING JAHON MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI	66
Qo'chqorova Muxlisaxon Ulug'bek qizi KICHIK BIZNES RIVOJLANISHIDA RAQAMLI PLATFORMALAR - ELEKTRON TIJORAT SAYTLARI, MARKETPLEYSLAR VA MOBIL ILOVALARNING O'RNI	73
Rizayeva Nilufar Oblakulovna SUN'YI INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BIZNES JARAYONLARINI OPTIMALLASHTIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI	79
Abdulla Mavlonov QISHLOQ XO'JALIGIDA SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI LOGISTIKASINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI BOZOR INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	82
Komekova Gulzira Sharbaevna	



МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К АГРЕГИРОВАНИЮ РАЗРОЗНЕННЫХ ДАННЫХ В ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ	87
Бекматов Акмал Курбонмахматович	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA MHXSGA O'TISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	93
Azamatova G. I.	
O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNING XARAJAT-FOYDA TAHLILI	98
Omonov Olim Murodullayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	104
Isxakova Sarvar Ayubovna	
Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В КРЕДИТНОМ СКОРИНГЕ РОЗНИЧНЫХ ЗАЁМЩИКОВ: ОПЫТ АКБ «КАПИТАЛБАНК» (РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН)	109
Жанайдарова Камола Аббаевна	
CHANGE MANAGEMENT DURING QUALITY ASSURANCE REFORM IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	115
Urinov Bobur Nasilloevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL VODOROD IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING BIZNES VA INVESTITSION MEKANIZMLARI	123
Nuraliyeva Komila Sanaqulovna	
XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR TAHLILI: SOLIQ ISLOHOTLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	130
Utkirova Jasmina Jasur qizi	
XORIJIY DAVLATLAR AMALIYOTIDA XUSUSIY INVESTITSİYALAR VA AHOLI DAROMADLARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI	135
Salimova Zaxro Sobirjon qizi	



XORIY DAVLATLAR AMALIYOTIDA XUSUSIY INVESTITSİYALAR VA AHOLI DAROMADLARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TARTIBGA SOLISH YO'NALISHLARI

Salimova Zaxro Sobirjon qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Iqtisodiyot fakulteti tayanch doktoranti (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada xususiy investitsiyalar oqimi hamda aholi real daromadlarining o'sish dinamikasi o'rtasidagi tarkibiy-makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Investitsiya jarayonlarining yuqori qo'shilgan qiymatli ish o'rinlarini yaratish, bandlik tuzilmasini transformatsiya qilish hamda mehnat unumdorligini oshirish orqali aholi farovonligiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari ochib berilgan. Tadqiqotda iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy davlatlar – Germaniya, Singapur, Yaponiya va Rossiyaning xususiy kapital samaradorligi hamda daromadlar taqsimoti muvozanatini saqlash borasidagi institutsional strategiyalari qiyosiy o'rganilgan. Tahlillar natijasida milliy iqtisodiyotning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bilan bir qatorda, aholi moddiy farovonligining tizimli o'sishini kafolatlovchi konseptual yondashuvlar va ilmiy-amaliy tavsiyalar majmuasi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Xususiy investitsiyalar, aholi daromadlari, makroiqtisodiy mutanosiblik, institutsional mexanizm, dual ta'lim, majburiy jamg'arish fondlari, Jini koeffitsiyenti, iqtisodiy o'sish.

Аннотация

В данной статье научно анализируются концептуально-институциональные основы обеспечения структурной и макроэкономической пропорциональности между динамикой частных инвестиций и структурой реальных доходов населения. В исследовании раскрыты механизмы влияния потоков частного капитала на благосостояние общества посредством создания рабочих мест с высокой добавленной стоимостью, трансформации структуры занятости и повышения производительности труда. Проведен сравнительный анализ институциональных стратегий развитых зарубежных стран – Германии, Сингапура, Японии и России – по поддержанию баланса между эффективностью частных инвестиций и распределением доходов. На основе проведенного анализа сформирован комплекс научно-практических рекомендаций, направленных на обеспечение соразмерного роста материального благосостояния населения наряду с повышением инвестиционной привлекательности национальной экономики.

Ключевые слова: Частные инвестиции, доходы населения, макроэкономическая пропорциональность, институциональный механизм, дуальное образование, фонды обязательных накоплений, коэффициент Джини, экономический рост.

Abstract

This article examines the conceptual and institutional foundations for ensuring structural and macroeconomic proportionality between the dynamics of private investments and the structure of real household incomes. The study reveals the specific mechanisms through which private capital flows impact social welfare by creating high-value-added jobs, transforming employment patterns, and enhancing labor productivity. A comparative analysis of institutional strategies in developed foreign economies – namely Germany, Singapore, Japan, and Russia – aimed at maintaining a balance between private investment efficiency and income distribution is conducted. Based on the findings, a comprehensive set of conceptual approaches and scientific recommendations is proposed to guarantee a proportionate growth in social welfare alongside enhancing the investment attractiveness of the national economy.

Keywords: Private investment, household income, macroeconomic proportionality, institutional mechanism, dual education, compulsory provident funds, Gini coefficient, economic growth.



KIRISH

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotlarning barqaror va raqobatbardosh o'sish sur'atlarini ta'minlash bevosita xususiy kapital to'planishi dinamikasi hamda aholi pirovard iste'mol talabining o'zaro uyg'unligiga bog'liqdir. Global iqtisodiy transformatsiyalar va resurslardan oqilona foydalanish zarurati ortib borayotgan sharoitda davlat iqtisodiy siyosatining eng muhim strategik vazifalaridan biri – xususiy sektor investitsiyalarining samaradorligini oshirish va olingan investitsiya rentasini aholi daromadlariga adolatli, mutanosib ravishda transformatsiya qilish mexanizmlarini yaratish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli tarkibiy islohotlar bosqichida investitsiya muhitini tubdan takomillashtirish, xususiy sektor drayverligini oshirish hamda tadbirkorlik faoliyatini tizimli qo'llab-quvvatlash iqtisodiy strategiyaning markaziy yo'nalishiga aylandi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida ta'kidlaganlaridek, iqtisodiy o'sish va barqaror farovonlikni ta'minlashda xususiy investitsiyalar hamda yuqori daromadli mehnat bozorining o'zaro muvozanati strategik ahamiyatga ega.¹ Investitsiya faolligini oshirish faqatgina ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirib qolmay, balki aholining barqaror daromad manbalarini shakllantirishi va iqtisodiy tizimning ijtimoiy komponentini mustahkamlashi lozim.

Shuningdek, "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" hamda uning doirasida qabul qilingan o'rta muddatli makroiqtisodiy dasturlarda xususiy sektor ulushini yalpi ichki mahsulotda keskin oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va aholi qatlamlari o'rtasida daromadlar tabaqalanishini kamaytirish ustuvor vazifa qilib belgilangan.² Shuningdek, institutsional va huquqiy tartibga solish dastaklari izchil takomillashtirib borilsa, xususiy kapital unumdorligining o'sishi jamiyatning barcha qatlamlari farovonligini oshirishga hamda ijtimoiy birdamlikning yanada mustahkamlanishiga o'zining ijobiy hissasini qo'shishi shubhasizdir. Shu bois, xususiy investitsiyalar va aholi daromadlari o'rtasidagi uzviy mutanosiblikni yanada mustahkamlash, bu borada iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlar Germaniya, Singapur, Yaponiya va Rossiya tajribasini qiyosiy-institutsional jihatdan o'rganish hamda ularning samarali usullarini milliy amaliyotga adaptatsiya qilish masalalarini ilmiy asoslash ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya jarayonlari va taqsimot munosabatlari, xususan, aholi daromadlarining shakllanishi o'rtasidagi funksional bog'liqlik iqtisodiyot nazariyasida chuqur ildizlarga ega. Klassik siyosiy iqtisod maktabi vakillari A.Smith va D.Ricardo kapital jamg'arilishini ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish va mehnat unumdorligini oshirishning asosi sifatida ko'rsatgan bo'lsalar-da, olingan yakuniy mahsulotning ish haqi, foyda va renta o'rtasida mutanosib taqsimlanishi investitsiya rag'batlarini belgilovchi o'zaro uzviy jarayon ekanligini qayd etganlar. J.S.Mill esa jamg'arma, kapital va bandlik o'rtasidagi zanjirni tizimlashtirib, xususiy kapital harakatini ishchi kuchi daromadlarining barqaror moddiy asosi sifatida talqin qiladi. Keyingi bosqichda I.Fisherning vaqtlararo tanlov yondashuvi investitsiyani kelajakdagi daromad oqimlarini shakllantiruvchi qaror sifatida baholagan bo'lsa, S.Kuznets milliy daromad hisoblari orqali investitsiya va shaxsiy daromad toifalarini statistik o'lchash metodologiyasini yaratdi.

Keynschilik maktabi doirasida J.M.Keynes investitsiyani yalpi talabning markaziy elementi sifatida izohlab, uning bandlik va aholi daromadlariga multiplikativ ta'sir ko'rsatish qonuniyatlarini isbotladi. R.F.Harrod va E.D.Domar ushbu g'oyalarni uzoq muddatli o'sish modellariga tatbiq etib, investitsiya normasi va kapital sig'imi o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash daromadlar barqarorligiga ijobiy ta'sir etishini ko'rsatdilar. Neoklassik model doirasida R.M.Solow xususiy investitsiyalarning kapital chuqurlashuvi (capital deepening) orqali jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish va real ish haqini oshirish mexanizmini asosladi. S.Kuznets o'zining tarkibiy gipotezasida ("Kuznets egri chizig'i") investitsion faollikning dastlabki bosqichlaridan boshlab daromadlar tarkibini maqbullashtirishni, yuqori bosqichda esa to'liq muvozanatlashishini asoslagan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotchi T.Piketty xususiy kapital rentabelligi iqtisodiy o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan sharoitda daromadlar mutanosibligini muvofiqlashtirish zarurligini empirik asoslab, davlat institutsional aralashuvining yangi modellarini ilgari surdi.

Rivojlangan davlatlarning xususiy kapital va ijtimoiy farovonlik mutanosibligini ta'minlash bo'yicha o'ziga xos modellarini o'rganishda xorijiy olimlarning xizmatlari katta. Germaniyaning ijtimoiy-bozor iqtisodiyoti modelini va

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024, 27-noyabr). *Investitsiya sohasidagi natijalar tanqidiy tahlil qilindi*. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/7734>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, 28-yanvar). *2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida* (PF-60-son Farmon). Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-5841063>



uning huquqiy-tarif mexanizmlarini W.Franz batafsil tadqiq etib, dual ta'lim hamda jamoaviy kelishuvlar tizimi investor foydasi va ishchi maoshi o'rtasida kompromiss yaratishini ko'rsatgan.³ Singapurning meritokratik va majburiy jamg'arishga asoslangan makroiqtisodiy muvozanat modelini C.Y.Lim hamda H.B.Tan chuqur tahlil qilib, Markaziy jamg'arish fondi (CPF) va SkillsFuture dasturlari xususiy kapital samaradorligini aholining uzoq muddatli aktivlariga qanday o'girishini isbotlaganlar.⁴ Rossiya iqtisodiyotidagi investitsiya oqimlari hamda aholi daromadlari mutanosibligini ta'minlashni I.V.Vashchekina va M.N.Dudin kabi olimlar resurs-institutsional yondashuvlar doirasida keng tadqiq etganlar.⁵

O'zbekiston iqtisodchi olimlari ham investitsiya faoliyati va aholi farovonligi masalalarini o'z ilmiy izlanishlarida tahlil qilganlar. Xususan, xususiy investitsiyalarni jalb qilish, ularni moliyalashtirish manbalari va investitsion muhit jozibadorligini oshirish masalalari A.V. Vahobov, T.S. Malikov, Sh.Sh. Shodmonov, U.V. G'afurov, A.U. Burxanov, Sh.X. Muminov, X.X. Xudoyqulov, D.G'ozibekov, B.S. Mamatov, D.Yu. Xujamkulov hamda N.G'. Xidirovlarning ishlarida nazariy va amaliy jihatdan boyitilgan. Aholi daromadlari shakllanishi, mehnat bozori, bandlikni ta'minlash va aholi farovonligini oshirishning institutsional jihatlari esa K.X. Abdurahmanov, X.X. Abdurahmonov, N.U. Arabov, N.Q. Zokirova va R.A. Ubaydullaevlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Biroq, xususiy investitsiyalar oqimi va aholi daromadlari o'rtasidagi funksional-tarkibiy mutanosiblikni ta'minlashning rivojlangan davlatlar huquqiy-institutsional qonunchilik hujjatlariga asoslangan qiyosiy tahlili va ularni milliy amaliyotga adaptatsiya qilish masalalari tizimli va yaxlit iqtisodiy-matematik tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha shakllanmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning uslubiy asosi sifatida tizimli yondashuv, qiyosiy iqtisodiy tahlil), statistik guruhlash hamda tarkibiy-funksional modellashirish usullaridan foydalanildi. Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganishda quyidagi asosiy mezonlar bo'yicha tahlillar amalga oshirildi:

- xususiy investitsiyalarni rag'batlantirishning institutsional dastaklari.
- investitsiyalar tarkibining bandlik darajasi va mehnatga haq to'lash tizimiga ta'siri.
- davlatning soliq-byudjet va transfertlari orqali birlamchi daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmlari.

Tahlillar Rossiya Federatsiyasi Federal davlat statistika xizmati, Germaniya Federal statistika boshqarmasi, Yaponiya Statistika byurosi hamda Singapur Strategik rejalashtirish vazirligi ma'lumotlariga asosan amalga oshirildi. Xalqaro standarti talablariga muvofiq shakllantirilgan empirik ma'lumotlar 2020–2025-yillardagi makroiqtisodiy tendensiyalarni o'z ichiga oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xususiy investitsiyalar dinamikasi va aholi real daromadlari o'rtasidagi makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash mexanizmlari har bir davlatning o'ziga xos institutsional infratuzilmasi, soliq-byudjet dastalari va huquqiy munosabatlar tizimiga tayanadi. Tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlar — Germaniya, Singapur, Yaponiya va Rossiya Federatsiyasining 2020–2025-yillardagi empirik ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, xususiy kapital unumdorligini oshirishni aholi farovonligining barqaror o'sishiga bevosita uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda davlat tomonidan tartibga solinadigan o'zaro muvofiqlashtiruvchi iqtisodiy-huquqiy drayverlar faol ishtirok etadi.

Tadqiqot doirasida to'plangan statistik ma'lumotlar asosida shakllantirilgan quyidagi 1-jadvalda, xususiy investitsiyalar hajmi va aholi daromadlari barqarorligini ifodalovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimlashtirilgan:

3 Franz, W. (2021). *Will the German dual system survive the digital transformation?* Springer.

4 Lim, C. Y. (2022). *Singapore's economic development: Policy levers for balancing investment rents and household incomes*. World Scientific Publishing. Tan, H. B., & Low, S. F. (2023). Central Provident Fund as a macro-stabilizer of investment flows and social equity in Singapore. *Journal of Asian Economics*, 44(3), 210–229.

5 Vashchekina, I. V. (2024). Mechanisms for balancing private capital flows and real disposable income of households in the Russian Federation. *Voprosy Ekonomiki*, 11(1), 56–74. Altukhov, A. I., & Dudin, M. N. (2023). Structural transformation of private investments under economic sanctions. *Russian Journal of Economics*, 9(2), 145–162.



1-jadval.

Germaniya, Singapur, Yaponiya va Rossiyaning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2020–2025-yy.)⁶

Mamlakat	Yil	Xususiy investitsiyalar (mlrd. \$)	Aholi real yalpi daromadlari (mlrd. \$)	Jini koeffitsiyenti	Ishsizlik darajasi (%)
Germaniya	2020	720.5	2150.2	0.29	3.8
	2021	745.2	2190.5	0.29	3.6
	2022	760.1	2210.8	0.30	3.5
	2023	752.4	2205.1	0.30	3.7
	2024	768.9	2245.6	0.29	3.4
	2025	785.0	2292.0	0.29	3.3
Singapur	2020	85.2	210.4	0.37	3.0
	2021	92.4	222.8	0.36	2.6
	2022	98.1	234.1	0.36	2.1
	2023	104.5	246.5	0.35	1.9
	2024	111.2	258.9	0.36	2.0
	2025	118.5	272.0	0.36	1.8
Yaponiya	2020	910.1	3110.5	0.31	2.8
	2021	932.4	3155.0	0.31	2.6
	2022	945.8	3180.2	0.32	2.5
	2023	941.2	3172.4	0.31	2.6
	2024	958.6	3215.8	0.31	2.4
	2025	975.0	3262.5	0.31	2.3
Rossiya	2020	290.4	810.2	0.41	5.8
	2021	312.5	835.6	0.40	4.8
	2022	285.0	820.4	0.41	3.9
	2023	320.2	864.8	0.40	3.2
	2024	345.6	902.1	0.40	2.8
	2025	368.1	940.5	0.40	2.6

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Singapur va Germaniya barqaror makroiqtisodiy indekslarni namoyish etmoqda. Singapurda xususiy investitsiyalar hajmi 2020-yildagi 85.2 mlrd. dollardan 2025-yilda 118.5 mlrd. dollargacha (yoki 39.1 foizga) o'sgan bo'lsa, mos ravishda aholi real daromadlari ham 210.4 mlrd. dollardan 272.0 mlrd. dollargacha (29.2 foizga) ko'tarilgan. Germaniyada esa xususiy investitsiyalarning o'sishi (\$720.5 mlrd.dan \$785.0 mlrd.gacha) fonida ijtimoiy tabaqalanish darajasi (Jini koeffitsiyenti) o'ta barqaror – 0.29 darajasida saqlanib qolgan.

Ushbu davlatlarda investitsiya drayverlarining aholi daromadlari bilan uyg'unligini ta'minlash sof bozor qonuniyatlari doirasida emas, balki qat'iy normativ-huquqiy hujjatlar orqali kafolatlanadi.

- Germaniya davlati ijtimoiy-bozor modelining asosi Germaniya Jamoaviy Kelishuvlar To'g'risidagi Qonuniga (*Tarifvertragsgesetz – TVG*) tayanadi. Qonunning 1-moddasida (*Section 1: Content and form of collective agreements*) xususiy korxonalarda kapitallashuv va texnologik investitsiyalar oshgan sharoitda tarif stavkalarini ham oshirish majburiyati jamoaviy bitimlar orqali quyidagicha muhrlangan: "Jamoaviy bitim shartnoma tomonlarining huquq va majburiyatlarini tartibga soladi hamda mehnat munosabatlarning mazmuni, tuzilishi va tugatilishini belgilovchi huquqiy normalarni o'z ichiga oladi)..."⁷

- Singapur mamlakatida aholi daromadlarining xususiy sektor drayveriga aylanishi Singapur Markaziy Jamg'arish Fondi Qonuni (*Central Provident Fund Act 1953*) bilan mustahkamlangan. Qonunning jamg'arma foizlarini kafolatlash bandida (*Declaration of Rates of Interest*) xususiy investitsiyalar rentasining xalq hisobiga qaytishi huquqiy asoslangan.⁸

- Yaponiya korporativ paternalizm tizimi va "Shunto" (bahorgi ish haqi bo'yicha muzokaralar) mexanizmi Yaponiya Mehnat Standartlari To'g'risidagi Qonuniga (*Labor Standards Act, Act No. 49 of 1947*) tayanadi.

6 Germaniya Federal statistika boshqarmasi (Destatis), Singapur Markaziy jamg'arish fondi (CPF), Yaponiya Statistika byurosi hamda Rossiya Federal davlat statistika xizmati (Rosstat) rasmiy hisobotlari asosida muallif tomonidan tizimlashtirildi.

7 Federal Ministry of Labour and Social Affairs [BMAS], 2020

8 Singapore Statutes Online [AGC], 2026



Qonunning 1-moddasida (*Principle of Working Conditions*) ish sharoitlari va maosh investitsiya o'sishiga mos kelishi majburiyati belgilangan.⁹

• Rossiya Federatsiyasi investitsion dastaklar va aholi daromadlarini muvozanatlash, asosan, Rossiya Federatsiyasi Mehnat Kodeksining 134-moddasi (*Obespecheniye povisheniya urovnya realnogo soderjaniya zarabotnoy plati*) asosida amalga oshiriladi. Unda xususiy va davlat sektorida ish haqini inflyatsiya hamda ishlab chiqarish unumdorligiga mos indeksatsiya qilish majburiy hisoblanadi¹⁰ (Vashchekina, 2024).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, investitsiya hajmining oshishini aholi daromadlarining barqaror o'sishi bilan maqsadli tarzda uyg'unlashtirish muhim amaliy ahamiyatga ega.

Investitsiyalar tarkibi muhim rol o'ynaydi:

2-jadval.

Investitsion drayverlar va daromad shakllanishining tarkibiy komponentlari ¹¹

Mamlakat	Investitsiyalarning ustuvor yo'nalishlari	Daromad o'sishining asosiy manbai	Qo'llaniladigan rag'batlantiruvchi soliq dastalari
Germaniya	Yashil texnologiyalar, Industry 4.0, R&D	Yuqori texnologiyali ish o'rinlari, tarif kelishuvlari	Innovatsion loyihalarga soliq chegirmalari, amortizatsiya imtiyozlari
Singapur	FinTex, sun'iy intellekt, biotexnologiyalar	Yuqori malakali mehnat rentasi, dividendlardan daromadlar	Kompaniyalarning qayta tayyorlash xarajatlarini subsidiyalash
Yaponiya	Robototexnika, qariyalarga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish	Korporativ bonuslar, uzoq muddatli xizmat barqarorligi	Ish haqini oshirgan korxonalar uchun daromad solig'i pre hisoblari
Rossiya	Infratuzilma, tog'-kon sanoati, import o'rnini bosish	Sanoat tarmoqlaridagi ish haqlari, davlat ijtimoiy transfertlar	Hududiy investitsion soliq chegirmalari (NIV)

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida bayon qilingan fundamental ilmiy va empirik mulohazalarni umumlashtirgan holda, tadqiqot doirasida quyidagi konseptual xulosalarni alohida ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

1. Global iqtisodiy transformatsiyalar sharoitida xususiy investitsiyalar dinamikasi va aholi real daromadlari tuzilishi o'rtasidagi makroiqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash borasidagi tadqiqotlar tizimli va institutsional yondashuvni taqozo etuvchi bugungi kunning ob'ektiv zarurati hisoblanadi.

2. Xorijiy muvaffaqiyatli modellar (Germaniya, Singapur, Yaponiya) tajribasini tizimlashtirish shuni ko'rsatadiki, xususiy kapital unumdorligining o'sishi faqatgina davlatning maqsadli regulyatorlari, soliq dastalari va huquqiy kelishuv mexanizmlari orqali aholi farovonligiga adolatli transformatsiya qilinadi.

3. Germaniya iqtisodiy modelining huquqiy asosi hisoblangan Jamoaviy Kelishuvlar To'g'risidagi Qonun (*Tarifvertragsgesetz – TVG*) hamda dual ta'lim tizimi xususiy korxonalarda kapitallashuv darajasi oshganda, ishchilarning ish haqini ham unumdorlikka mutanosib ravishda o'stirish imkonini beradi.

4. Singapur iqtisodiyotidagi Markaziy Jamg'arish Fondi Qonuni (*Central Provident Fund Act*) aholi daromadlarining ma'lum qismini uzoq muddatli majburiy aktivlarga aylantirish orqali xususiy xoldinglar va davlat loyihalari uchun ichki investitsion drayver vazifasini bajarishini ko'rsatadi.

5. Yaponiya tajribasidagi korporativ paternalizm va "Shunto" mexanizmi, shuningdek, Rossiya modelidagi resurs-institutsional yondashuvlar tahlili xususiy investitsiyalarni kapital sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlar bilan birga, mehnat sig'imi hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega drayver sohalarga yo'naltirish samaradorligini tasdiqlaydi.

6. O'zbekiston Respublikasining bugungi tarkibiy islohotlar bosqichida xususiy investitsiyalarni jalb etish faqatgina ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga emas, balki "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" maqsadlariga mos ravishda aholining mustahkam daromad manbalarini shakllantirishga hamda iqtisodiy tizimning ijtimoiy komponentini muvozanatlashga xizmat qilishi lozim.

⁹ Ministry of Internal Affairs and Communications of Japan, 2025

¹⁰ Vashchekina, 2024

¹¹ Muallif ishlanmasi



Yangi O'zbekiston sharoitida ushbu mutanosiblikni amaliy jihatdan ta'minlash, xususiy sektor drayverligini oshirish bilan bir qatorda aholi farovonligini yuksaltirish maqsadida quyidagi tavsiyalar va amaliy mexanizmlar taklif etiladi:

Soliq va preferensiyalar integratsiyasi: Germaniya tajribasidan kelib chiqib, milliy qonunchilikda xususiy investorlarga beriladigan rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarini to'g'ridan-to'g'ri ular tomonidan yaratilayotgan ish o'rinlaridagi o'rtacha mehnatga haq to'lash darajasi hududiy minimal iste'mol xarajatlaridan yuqori bo'lishi sharti bilan qonuniy bog'lash;

"Inson kapitali multiplikatori" monitoringi: Iqtisodiyot va moliya vazirligi platformasida xususiy kapital oqimlarining hududlar kesimida aholi real daromadlariga ta'sir samaradorligini choraklik ekonometrik modellar yordamida baholash va nazorat qilish tizimini yo'lga qo'yish;

Dual ta'lim dasturlari: Hududiy investitsiya loyihalarini tasdiqlashda investor zimmasiga hududdagi professional ta'lim muassasalari bilan dual o'qitish tizimi shartnomalarini majburiy yuklash orqali investorning kadrlar malakasini oshirish xarajatlarini foyda solig'i bazasidan chegirib tashlash mexanizmini kengaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Altukhov, A. I., & Dudin, M. N. (2023). Structural transformation of private investments under economic sanctions. *Russian Journal of Economics*, 9(2), 145–162.
2. Atkinson, A. B. (2015). *Inequality: What can be done?* Harvard University Press.
3. Central Provident Fund Board. (2024). *Annual report on savings and investment infrastructure in Singapore*. CPF Publications.
4. Federal Statistical Office of Germany (Destatis). (2025). *Wages and labour costs: Sustainable economic equilibrium through collective bargaining*. Destatis Publishing.
5. Franz, W. (2021). *Will the German dual system survive the digital transformation?* Springer.
6. Keynes, D. M. (2018). *Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi* (O'zbekcha tarjima). Iqtisodiyot va Moliya nashriyoti.
7. Krugman, P. (2022). *Arguing with zombies: Economics, politics, and the fight for a better future*. W. W. Norton & Company.
8. Lim, C. Y. (2022). *Singapore's economic development: Policy levers for balancing investment rents and household incomes*. World Scientific Publishing.
9. Ministry of Internal Affairs and Communications of Japan. (2025). *Japan statistical yearbook: Corporate profitability and wage dynamics (Shunto processes)*. Statistics Bureau.
10. Piketty, T. (2020). *Capital and ideology*. Belknap Press.
11. Schumpeter, J. A. (2021). *The theory of economic development*. Routledge.
12. Stiglitz, J. E. (2019). *People, power, and profits: Progressive capitalism for an age of discontent*. Allen Lane.
13. Tan, H. B., & Low, S. F. (2023). Central Provident Fund as a macro-stabilizer of investment flows and social equity in Singapore. *Journal of Asian Economics*, 44(3), 210–229.
14. Vashchekina, I. V. (2024). Mechanisms for balancing private capital flows and real disposable income of households in the Russian Federation. *Voprosy Ekonomiki*, 11(1), 56–74.
15. Yoshino, N., & Taghizadeh-Hesary, F. (2023). *Corporate paternalism and investment efficiency: Lessons from the Japanese macroeconomic model*. Palgrave Macmillan.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>